KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 49 (579) 2025-YIL, 30-OKTABR

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

SINGAPUR TAJRIBASI: KORRUPSIYANI QONUN BILAN EMAS, MADANIYAT BILAN YENGDI



Nimadirga qarshi kurashish uchun, eng avvalo, u haqida to'liq tasavvurga ega bo'lish kerak. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishda bu yanada muhim, chunki ko'pchilik korrupsiyani faqat bir yo'nalishda — pora berish yoki olish sifatida tasavvur qiladi. Aslida, bu ancha murakkab va ko'p qirrali.

Korrupsiyaning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

Poraxo'rlik — pora olish yoki berish orqali qarorlarni sotib olish.

Tanish-bilishchilik (nepotizm) — lavozim yoki imtiyozlarni tanishlarga berish.

Vakolatni suiiste'mol qilish — o'z vakolatini shaxsiy foyda yo'lida ishlatish.

Firibgarlik va moliyaviy o'g'irlik — davlat yoki tashkilot mablag'larini noqonuniy o'zlashtirish.

Siyosiy korrupsiya — siyosiy kuch yoki lavozimni shaxsiy yoki guruhiy manfaatga ishlatish.

(Davomi 2-betda).

Bugungi kunda korrupsiya hayotimizning turli jabhalarida uchrab turadi. Ba'zan u katta miqdordagi pora yoki lavozim uchun kurash shaklida bo'ladi, ba'zan esa kundalik hayotda oddiy, ammo og'riqli holatlar sifatida namoyon bo'ladi.



HALOLLIK — INSONNING ENG KATTA BOYLIGI

Korrupsiya — zamonaviy jamiyatning eng xavfli va keng tarqalgan muammolaridan biridir. U ko'pincha yuqori darajadagi jinoyat sifatida tasavvur qilinsa-da, kundalik hayotimizda kichik, ammo insoniy qadriyatlarga zarar yetkazuvchi holatlar orqali ham namoyon bo'ladi. Shu maqolada men shaxsiy tajribalarim orqali korrupsiyaning oddiy ko'rinishlarini va ularga qanday munosabatda bo'lish kerakligini yoritmoqchiman.

(Davomi 2-betda).

Sud tizimi islohotlari

ADOLATLI JAMIYAT SARI DADIL QADAM



Demokratik jamiyatda sud hokimiyatining o'rni beqiyos. Sud tizimi qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy ustun hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda sud-huquq sohasida qator islohotlar amalga oshirildi: sudyalar mustaqilligini kuchaytirish, fuqarolarning odil sudlovga bo'lgan huquqini kafolatlash va zamonaviy texnologiyalarni sud ishlariga tatbiq etish bo'yicha tizimli choralar ko'rildi. Shu jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida, 2025 yil 21 avgust kuni Prezident tomonidan PF-140-sonli farmon qabul qilindi. Uning asosiy maqsadi – sudlarni raqamlashtirish orqali odil sudlov samaradorligini yanada oshirish va fuqarolarga qulay shart-sharoit yaratishdir.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan PF–140-sonli Farmon aynan shu ezgu maqsadlarga xizmat qilmoqda.

Farmonning asosiy yo'nalishlari:

1."Raqamli sud" konsepsiyasi.

Farmonda "raqamli sud" g'oyasi alohida o'rin egallaydi. Bu konsepsiya asosida: sud ishlari va hujjat aylanmasi bosqichma-bosqich to'liq elektron tizimga o'tkaziladi; sud majlislari masofadan turib kuzatilishi mumkin bo'ladi; fuqarolar va advokatlar sud hujjatlariga onlayn tarzda murojaat qilishi uchun qulay platformalar yaratiladi. Natijada sud jarayonlarida shaffoflik kuchayadi va odamlar sudga borib vaqt yo'qotmasdan elektron xizmatlardan foydalanishi mumkin bo'ladi.

2. Sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish.

Dunyo tajribasida sud tizimlarida sun'iy intellekt qo'llanilishi tobora ommalashmoqda. O'zbekistonda ham bu jarayon PF-140 orqali yo'lga qo'yiladi. Farmonga ko'ra, AI yordamida: ishlarni taqsimlashda avtomatlashtirish amalga oshiriladi; qonunlar va sud amaliyotini tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi; sudyalarga qaror qabul qilishda huquqiy yordamchi tizim sifatida xizmat qiladi. Bu esa inson omilini kamaytiradi va qarorlar adolatliroq hamda asosliroq bo'lishiga xizmat qiladi.

3. Sud hujjatlari yagona arxivi.

Farmonda belgilab qo'yilgan yana bir muhim yo'nalish – elektron arxiv modulini yaratishdir. Uning orqali: barcha sud qarorlari va hujjatlari yagona elektron bazada to'planadi; sud amaliyotini tahlil qilishda katta ma'lumotlar (Big Data) dan foydalanish imkoni paydo bo'ladi; fuqarolar sud qarorlariga osonlikcha kirish imkoniga ega bo'ladi. Bu modul nafaqat fuqarolar uchun, balki tadqiqotchilar va huquqshunoslar uchun ham qimmatli manbaga aylanishi kutilmoqda.

4. Sudya va xodimlarning malakasini oshirish.

Farmonga ko'ra, sudyalar va sud apparati xodimlari zamonaviy raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha doimiy ravishda o'qitiladi. Shu maqsadda: maxsus o'quv kurslari tashkil etiladi; xorijiy tajribani o'rganish yo'lga qo'yiladi; "kiberhuquq" sohasida ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi. Bu sudyalarning bilim va ko'nikmalarini zamon talabiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek mazkur hujjatda quyidagi ustuvor yo'nalishlar ham belgilab berilgan:

1. Sud mustaqilligi va xolisligini kuchaytirish.

Qarorda sudyalar faoliyatiga har qanday noqonuniy aralashuv qat'iyan taqiqlanishi, ularning qaror chiqarishda mustaqilligi kafolatlanishi belgilangan. Bu esa odil sudlovni ta'minlashda muhim omildir.

2. Fuqarolarning odil sudlovga erkin kirishini ta'minlash.

Endilikda sud jarayonlari yanada ochiq va shaffof bo'lib, aholining huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan mexanizmlar joriy etilmoqda.

3. Sud ish yuritish jarayonlarini soddalashtirish.

Fuqarolarga qulaylik yaratish maqsadida da'vo va arizalarni onlayn topshirish, masofadan turib sud majlislarida ishtirok etish imkoniyatlari kengaytirildi. Bu esa vaqt va mablag' tejalishiga olib keladi.

4. Sud tizimida axborot texnologiyalarini keng joriy etish.

Elektron sudlov tizimlari, avtomat-lashtirilgan hujjat aylanishi, onlayn kuzatuv mexanizmlarining kengaytirilishi sudlarning faoliyatini tezkor va samarali qiladi.

5. Sudyalar malakasini oshirish va mas'uliyatini kuchaytirish. Qarorda sudyalar uchun muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, ularning faoliyati samaradorligi va halolligi bo'yicha qat'iy talablar belgilangan.

Hurmatli yurtdoshlar!

Ushbu islohotlar tuman sudlari faoliyatida ham amaliy ifodasini topmoqda. Har bir ishni ko'rib chiqishda biz inson taqdiri, uning sha'ni va qadr-qimmatini e'tiborda tutib, qonun ustuvorligi asosida qaror qabul qilamiz. Shuni alohida ta'kidlash joizki, PF–140 Farmoni sud hokimiyatining yangi bosqichdagi rivojlanish dasturi bo'lib, jamiyatimizda adolatni qaror toptirish, fuqarolarning ertangi kunga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

A.NAZIRBEKOV,
Jinoyat ishlari bo'yicha
Izboskan tuman sudining raisi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI
O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

HALOLLIK — INSONNING ENG KATTA BOYLIGI

(Davomi. Boshi 1-betda).

Bir kuni kasalxonada turgandim. Shifokorning oldiga kirishim kerak edi, lekin navbat juda uzun edi. Har kim o‘z dardiga shifo izlab kelgan, hammaning yuzida sabrsizlik va charchoq sezilardi. Shu payt bir ayol keldi. U hech kimdan ruxsat so‘ramasdan to‘g‘ri hamshira yoniga bordi, cho‘ntagidan pul olib, sekin hamshiraning cho‘ntagiga solib qo‘ydi. Hamshira jilmayib, “kiravering”, dedi. Ayol esa bemalol shifokor xonasiga kirib ketdi. Bu manzara menga juda og‘ir ta’sir qildi. Chunki men va boshqalar navbat kutib turgandik. Kimdir og‘riqdan qiynalgan, kimdir bolasi uchun xavotirda, kimdir esa shunchaki adolat kutayotgan edi. Ammo birgina pul tufayli o‘sha adolat yo‘qoldi. Shunda o‘ylab qoldim: korrupsiya shunchaki pora emas, u jamiyatni ichidan buzadigan kasallik. Ba’zilar uchun bu odatiy holdek tuyuladi, lekin aslida u halollik, vijdon va ishonchni yemiradi.

Yana bir holatni eslayman. Opam universitetni tugatganidan so‘ng ishga joylashmoqchi bo‘lganida, ayrim joylarda “agar biroz berilsa, ish tezroq bitadi”, deb aytganini eshitganman. Bu ham korrupsiyaning eng ko‘p uchraydigan ko‘rinishlaridan biri. Shu payt men yana o‘sha fikrga bordim — halollik yo‘lidan og‘ish kerak emas. Chunki pora bilan olingan ishda baraka bo‘lmaydi, halol mehnat qilgan inson esa kech bo‘lsa ham muvaffaqiyatga erishadi.

Halollik har qanday jamiyatning tayanchi. Agar har bir inson o‘z burchini vijdonan bajarsa, hech kimga pora kerak bo‘lmaydi. Biz har birimiz halol yo‘l bilan korrupsiyaga qarshi kurashamiz. O‘sha voqealardan so‘ng men o‘zimga so‘z berdim. Hech qachon bunday yo‘lni tanlamayman. Chunki halollik – bu faqat qonunga itoat etish emas, bu o‘z vijdoning oldida toza bo‘lishdir. Korrupsiya nafaqat tizimni, balki insonning ma’naviyatini ham buzadi.

Biz halol bo‘lsak, jamiyatda ishonch kuchayadi, adolat mustahkamlanadi. Halollik va poklik — insonni, oilani va jamiyatni yuksaltiradigan eng buyuk qadriyatlardir.

Sevinch ASQAROVA.

Hozirgi tez sur’atlarda o‘zgarayotgan zamonda “korrupsiya” tushunchasi hech kim uchun notanish emas. Korrupsiya shunday illatki, u nafaqat davlatning iqtisodiy rivojlanishiga, balki jamiyatning ma’naviy asoslariga ham o‘z salbiy ta’sirlarini o‘tkazmay qolmaydi. Negaki, korrupsiya davlat gullab-yashnashiga to‘sqinlik qiluvchi eng katta muammolardan biri, agarda bu illat ildizi yanada chuqur tomir otaversa insonlar orasida ishonch yo‘qola boshlaydi, mas’uliyat hissi kamayadi.

JAMIYAT DARDIGA AYLANGAN ILLAT

Ayrim sohalarda korrupsiyaning kelib chiqishiga ma’lum sabablar turtki bo‘ladi. Past maosh va ijtimoiy kafolatlarning yetishmasligi korrupsiya sodir bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Misol qilib aytadigan bo‘lsak, bir shaxs yuqori maosh oladigan ish joylariga kirish uchun korrupsiyaga qo‘l uradi. Bundan tashqari nazorat tizimining sustligi, insonlarda huquqiy savodxonlik pasligi, hamda jamiyatda “tanish-bilish” madaniyatining kuchli bo‘lishi ham eng katta sabablardan biri sifatida qaraladi. Masalan, Oliy o‘quv yurtlarida talabalar va ustozlar orasida ham bu holatga duch kelish mumkin. Talabalar yaxshi baho olish, semestrlardan qiyinchiliksiz o‘tib olish maqsadida mana shu “qora yo‘l”ga qo‘l uradi. Bu esa o‘z navbatida talabalar o‘rtasida norozilik kayfiyatini keltirib chiqaradi, bilimli va mana shunday noto‘g‘ri yo‘lni tanlagan talabalar o‘rtasida tengsizlik kelib chiqa boshlaydi, eng muhimi esa adolat tamoyillariga putur yetadi.



So‘nggi yillarda mamlakatimiz ham korrupsiyani oldini olish, adolatni ta’minlash maqsadida turli islohotlar olib borilmoqda. Ulardan O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga Qarshi Kurashish Agentligidir. Ushbu agentlik 2020-yilning 29-iyun kuni prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolangan “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmoniga muvofiq tashkil etilgan. Agentlik fuqarolik jamiyati, ommaviy axborot vositalari, mahalliy boshqaruv organlari bilan hamkorlikda yoshlar, ayollar orasida halollikni targ‘ib qilishni maqsad qilgan turli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Shu bilan birga “E-anticor.uz” platformasi, ”Elektron hukumat” loyihasi, ”Ochiq budjet” kabi tizimlar joriy etilgan bo‘lib, jamiyatda shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Eng muhimi, korrupsiyaga qarshi kurash faqatgina davlat idoralarining emas, balki har bir fuqaroning burchidir. Insonlar orasida, ayniqsa bugun o‘sib kelayotgan yoshlar orasida halollik, vijdon, mas’uliyat kabi qadriyatlarni mustahkamlash — kelajakda korrupsiyasiz jamiyatni barpo etishning asosiy shartlariga aylangan. Har birimiz o‘z kasbimizda halol bo‘lsak, jamiyatda adolat va ishonch mustahkamlanadi. Chunki korrupsiyasiz jamiyat — bu haqiqiy taraqqiyot garovidir.

Sevara ALIMOVA.

SINGAPUR TAJRIBASI: KORRUPSIYANI QONUN BILAN EMAS, MADANIYAT BILAN YENGDI

(Davomi. Boshi 1-betda).

So‘nggi yillarda mamlakatimizda oddiy poraxo‘rlik holatlari kamaygani kuzatilmoqda. Ammo boshqa turdagi korrupsion xatti-harakatlar — byudjet mablag‘larini noto‘g‘ri sarflash, moliyaviy firibgarlik, mansabni suiiste’mol qilish — ortib bormoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar soni 4649 taga yetgan. Bu esa o‘tgan yilga nisbatan 12,6 foizga ko‘p degani. Natijada davlat manfaatlariga 2,81 trillion so‘m miqdorida zarar yetkazilgan. Ayniqsa, Andijon viloyati 680 milliard so‘mlik korrupsiyaviy jinoyatlar bilan eng ko‘p aniqlangan hududlar qatoriga kirgan.

Shu o‘rinda, dunyo tajribasiga nazar tashlash foydadan xoli emas. Ayrim davlatlar korrupsiyani yengishda biz orzu qilayotgan natijaga allaqachon erishgan. Ularning ichida eng e’tiborlilardan biri — Singapur tajribasidir.



Har bir davlat tarixida shunday davrlar bo‘ladiki, unda jamiyat “endi yetar” degan charchoq chegarasiga yetadi. Singapur uchun 1950-yillar ana shunday yillar edi. Pora berish va olish hayotning bir qismi bo‘lib qolgan, ishonch esa yo‘qolgan edi. Oddiy odam hujjat olmoqchi bo‘lsa, pul kerak; ishga kirishmoqchi bo‘lsa, tanish kerak. Korrupsiya davlatni ichidan yemirib borayotganini ko‘rgan xalq esa asta-sekin umidini yo‘qotayotgan edi.

Ammo tarixda ba’zan bir qaror butun yo‘nalishni o‘zgartiradi. 1959-yilda Lee Kuan Yu boshchiligidagi hukumat ishni “tozalash”dan boshladi. Bu “tozalash” oddiy kampaniya emasdi — u o‘z xalqining ongini o‘zgartirishga qaratilgan edi. U shunday degan:

“Biz halol hukumat qurmoqchimiz, demak, avvalo halol yashash imkonini berishimiz kerak.”

Davlat xizmatchilarining oyliklari oshirildi, mol-mulki ochiq e’lon qilina boshlandi, eng muhimi — hech kim qonundan ustun bo‘lmasligi qat’iy belgilandi. Shunda “CPIB” — Korrupsiya amaliyotlarini tergov qilish byurosi tashkil etildi. U hatto vazirlarni ham tekshira oladigan darajada mustaqil edi.

Lekin bu yo‘l silliq kechmadi. Dastlab davlat ichida keskin qarshiliklar bo‘ldi: kimdir o‘z mansabini yo‘qotishdan qo‘rqdi, boshqalar esa “hukumat haddan oshmoqda” deb norozi bo‘ldi. Xalq orasida ham ishonchsizlik kuchli edi — odamlar “bu ham vaqtincha” deb o‘ylashardi. Ammo vaqt o‘tgan sayin harakatlar natija bera boshladi. Poraxo‘r amaldorlar ochiq sudlarda jazolandi, jamoatchilik esa asta-sekin hukumatni himoya qila boshladi.

Bu og‘riqli, ammo hal qiluvchi davr edi. Singapur korrupsiyani qonun bilan emas, madaniyat bilan yengdi. Maktablarda “halollik darslari” o‘tildi, OAV halol amaldorlarni targ‘ib qildi, jamiyat esa asta-sekin halollikni me’yor deb bilishni o‘rgandi.

Bugun Singapur dunyodagi eng shaffof 5 davlatdan biri. Korrupsiya bu yerda nafaqat jinoyat, balki uyat, or-nomusga zid ish hisoblanadi. Bu natijaga ular jazolash bilan emas, uzoq muddatli ishonch siyosati bilan erishdi.

Shu tarixdan biz uchun uchta asosiy saboq chiqadi:

1. Halollikni faqat qonun bilan emas, madaniyat bilan mustahkamlash kerak.

2. Islohotlar har doim qarshilik tug‘diradi, ammo davom etish zarur.

3. Fuqarolik ishonchi — har qanday qonundan kuchliroq.

Va, ehtimol, eng muhim saboq shuki: korrupsiyaga qarshi kurash — bu bir avlodning emas, butun xalqning ishi. Biz ham shu yo‘lni tanlasak, tayyor bo‘lishimiz kerak — tanqidga, shubhalarga, vaqtinchalik qiyinchiliklarga. Chunki tarix ko‘rsatadi: har bir adolatga intilgan xalq avval og‘riqni boshidan o‘tkazadi, so‘ng faxr bilan natijasini ko‘radi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, korrupsiyani faqat qonunlar bilan emas, madaniyat, texnologiya va ishonch bilan yengish mumkin.

O‘zbekiston bu yo‘lda allaqachon harakatni boshlagan, endi bu tizimni uzluksizlik va fuqarolik ishtiroki bilan mustahkamlash zarur.

Biz korrupsiyadan qachon xalos bo‘lamiz? Qachonki har bir inson halollikni foyda emas, oriyat deb bilsa. Qachonki jamiyat halol yashashni qahramonlik emas, oddiy odat deb qabul qilsa. Ana shunda biz “qo‘rqib emas, tushunib halol yashash” darajasiga yetamiz.

Va aynan o‘sha kuni — biz haqiqatan ham ozod jamiyat bo‘lamiz.

Shu sababli, menimcha, korrupsiyaga qarshi kurash faqat davlat idoralarining vazifasi emas. Bu har bir fuqaroning halolligi, mas’uliyati va fuqarolik pozitsiyasiga ham bevosita bog‘liq. Chunki korrupsiyani yo‘qotish — uni jazolashdan ko‘ra chuqurroq masala. Uning asl sabablari va qanday ishlash mexanizmlarini tushunish, jamiyatda ochiqlik va hisobdorlik madaniyatini shakllantirish zarur. Zero, haqiqiy o‘zgarish inson ongidan boshlanadi. Halollik esa — eng kuchli quroldir.

Muslima QAXRAMONJONOVA.

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili

AMIR TEMURNING EKOLOGIK SIYOSATI



Sohibqiron bobomiz Amir Temurning harbiy yutuqlari va imperiyasining ulug‘vorligi haqida ko‘p yozilgan bo‘lsa-da, uning ekologik siyosati va atrof-muhitga munosabati haqida kam ma’lumotga egamiz.

Amir Temurning ekologik siyosatini baholashda ikki tomonlama yondashuv zarur. Bir tomondan, irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash ijobiy ekologik ta’sir ko‘rsatgan. Boshqa tomondan, harbiy yurishlar va qishloq xo‘jaligi yerlarining keng ko‘lamli ishlatilishi salbiy ta’sirga olib kelgan bo‘lishi mumkin. Aniq raqamlar va dalillar yo‘qligi tufayli bu ta’sirlarni aniq miqyosini aniqlash qiyin.

O‘sha davr Markaziy Osiyo va yaqin Sharqda iqlim o‘zgarishi va tabiiy ofatlarning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Qurg‘oqchilik, sel va ocharchiliklar tez-tez uchrab turgan. “Zafarnoma”da qayd etilgan ba’zi urushlar va harbiy yurishlarning tabiiy ofatlar bilan bog‘liqligi aniqlanadi. Masalan, qishloq xo‘jaligi yerlarining vayron bo‘lishi va suv resurslarining kamayishi natijasida yuzaga kelgan ocharchiliklar qo‘shinlarning jang qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan.

Bu davrda irrigatsiya tizimlari alohida ahamiyatga ega qismlardan biri edi. Tarixiy manbalar uning kanallar va suv omborlarini qurdirish, mavjud tizimlarni ta’mirlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini ko‘rsatadi. Bu esa qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va aholining oziq-ovqat ta’minotini yaxshilashga yordam bergan. Shu bilan birga, keng ko‘lamli qurilish ishlari ekologik muammolarga olib kelishi mumkin edi — masalan, suv resurslarining noto‘g‘ri taqsimlanishi yoki qayta tiklanmaydigan tuproqlarning eroziyasi.

Bog‘lar — quvvat va madaniyat ramzi

Amir Temur davri shaharsozlik va bog‘dorchilikning yuksalishi bilan ajralib turadi. Uning hukmronligi davrida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz kabi shaharlar nafaqat harbiy va siyosiy markazlar, balki go‘zal bog‘lar va ko‘kalamzorlashtirilgan hududlar bilan ham mashhur bo‘lgan. Bog‘lar nafaqat estetik zavq manbai, balki dam olish, muloqot va ijtimoiy hayotning muhim qismi bo‘lgan. Ular suv ta’minoti, meva va sabzavot yetishtirish, iqlimni yumshatish kabi amaliy funksiyalarni ham bajaradigan bo‘lib, shu tariqa shaharning ekologik muvozanatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Daraxtlarga hayot va barokat timsoli sifatida qarashgan. Tarixiy manbalarda uning ko‘plab daraxtlar ektirishga buyruq bergani haqida ma’lumotlar mavjud. Bu nafaqat shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish, balki qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklarni ekish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga urinish sifatida qaralishi mumkin. Daraxtlar shaharlarning iqlimini yumshatish, chang va ifloslanishdan himoya qilish, tuproq eroziyasini kamaytirish kabi amaliy vazifalarni ham bajargan.

Amir Temur davridagi bog‘lar va ko‘kalamzorlashtirish suv ta’minoti bilan chambarchas bog‘liq edi. Keng kanallar va ariqlar tizimi orqali suv shaharlarga va bog‘larga yetkazilgan. Bu suv boshqaruvi nafaqat qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga, balki ko‘kalamzorlashtirish ishlarining amalga oshirilishiga ham imkon yaratgan. Shunday qilib, suv boshqaruvi va ko‘kalamzorlashtirish bir-birini to‘ldiruvchi va bir-biriga bog‘liq jarayonlar sifatida qaralishi mumkin.

Amir Temur bog‘lari xususidagi dastlabki ma’lumotlar o‘tmish tarixchilari, shoirlari, sayyohlari asarlarida uchraydi.

Shuningdek, Amir Temur bog‘lari O‘rta asrlar rassomlari miniatyuralarida ham tasvirlangan. Bog‘i Baland. Amir Temur Samarqandning shimolidagi Cho‘ponota maqbarasi yaqinida nabirasi (Mironshohning qizi) ga atab qurdirgan. Uni barpo qilishda Eron, Ozarbayjon va boshqa mamlakatlar bog‘chilik san’ati ustalari hamda me’morlari qatnashgan. Bog‘ o‘rtasida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli qasr bo‘lib, uning atrofidagi uzumzor, anjirzor va olmazorlar bog‘ga go‘zal bir tarovat baxsh etib turgan.

Bog‘i Behisht. Amir Temur Samarqandning g‘arbida suyukli xotini Tumanog‘a (Xayrunniso)ga atab qurdirgan (1378 y.). Yozma manbalarda “Bog‘i Jannat” nomi bilan ataladi. Tarixchi Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, bog‘ o‘rtasidagi atrofi xandaq bilan muhofaza etilgan sun’iy tepalik ustida Tabriz oq marmaridan qurilgan hashamatli saroy bo‘lgan. Saroyga bir necha ko‘tarma ko‘priklar orqali kirilgan. Saroyning bir tarafida hayvonot bog‘chasi ham bo‘lgan.

Bog‘i Davlatobod. Amir Temurga Hindiston yurishidan qaytgan kuni (1399-yil 22-aprel) hadya qilingan. Amir Temur bu bog‘da zafarli yurishlardan qaytgach, dam olgan, tantanali marosimlar o‘tkazgan, elchilarni qabul qilgan.

Bog‘i Dilkusho (ko‘ngil ochuvchi bog‘). Amir Temur xotinlaridan biri — To‘qalxonim sharafiga qurdirgan (1397 y.). Har tarafi 900 metr uzunlikdagi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, 4 darvozasi, markazida hashamatli saroy bo‘lgan. Saroy uch qavatli bo‘lib, har qavatida favvora otilib turgan. Saroy devorlariga Amir Temur olib borgan urushlardan lavhalar chizib qo‘yilgan. Amir Temur Ispaniya elchisi Rui Gonzales de Klavixoni ana shu bog‘da qabul qilgan. Bu bog‘ o‘rnida hozir Dilkusho qishlog‘i joylashgan.

Bog‘i Jahonnamo (Jahon ko‘zgusi). Unda saroy va qal’a bo‘lgan. “Zafarnoma”da yozilishicha, bu bog‘ning hududi benihoyat katta bo‘lib, yo‘qolib qolgan ot 6 oydan so‘ng topilgan ekan. Bog‘i Maydon. Amir Temur Samarqandning shimolida, Cho‘ponota tepaligi etagida qurdirgan. Tarixiy manbalarga qaraganda, bog‘da hashamatli bir ayvon (ko‘shk) va qim-matbaho toshlardan yasalgan taxt bo‘lgan. Mirzo Ulug‘bek bu bog‘ni yanada obod qilgan. Bobur shu haqda bunday deb yozadi: “bu bog‘ning o‘rtasida (Ulug‘bek) bir oliy imorat qilibdur. Chil(qirq) sutun derlar, du (ikki) oshyona (qavat), sutunlari tamomi toshdin. Bu imoratning to‘rt burchida to‘rt manordek Burjlar qo‘poribturlarkim, yuqorig‘a chiqar yo‘llar bu to‘rt burjdindur. O‘zga tamom yerlarda toshdin sutunlardir. Ba’zini morpech xiyora (burama, ko‘pqirrali) qilibturlar. Yuqorigi oshyonaning to‘rt tarafi ayvondir, sutunlari toshdan. O‘rtasi chordora uydir. Imorat kursisini tamom toshdan farsh qilibdirlar”. Bu bog‘ o‘rni hozir ham bog‘i maydon deb ataladi.

Bog‘i nav (yangi bog‘). Amir Temur Samarqandning Janubida qurdirgan (1404 y.). Lolazor qishlog‘i o‘rnida joylashgan. Bu bog‘ to‘rtburchak shaklda bo‘lib, atrofi baland paxsa devor bilan o‘ralgan, har burchagida minora qad ko‘tarib turgan. Markazida boshqa bog‘lardagiga nisbatan kattaroq qasr, uning oldida hovuz bo‘lgan.

Bog‘i Chinor. Unda chinorlar ko‘p bo‘lgan. Markazida xochsimon tarxli saroy joylashgan.

Bog‘i Shamol. Undagi saroy to‘rtburchak shaklda bo‘lib, har tomoni 1500 qadamni tashkil qilgan. Devorlariga marmar qoplanib, sahni qora yog‘och va fil suyagidan ishlangan. Bu bog‘ joylashgan hudud va u yerdagi ariq hozir ham “Bog‘i shamol” deb ataladi.

Samarqand atrofida bulardan tashqari yana bir qancha bog‘lar bo‘lgan. Chunonchi, Bog‘i Bo‘ldu, Bog‘i Zog‘on, Bog‘i Naqshi Jahon, Bog‘i Amirzoda Shohrux, Bog‘cha, Bog‘i Dilafro‘z, Bog‘i Sheron, Gulbog‘, Lolazor, Bedana qo‘rug‘i, Chumchuqlik, G‘ozxona va boshqalar shular jumlasidandir. Amir Temurning bog‘ qurish an’anasini temuriylardan Shohrux, Ulug‘bek, Bobur va boshqalar ham davom ettirishgan.

Zamonaviy ekologik fikrlar atrof-muhitning barqaror rivojlanishi, uzoq muddatli rejalashtirish va tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan. Amir Temurning yondashuvi zamonaviy ekologiya prinsiplaridan farq qilsa-da, u o‘z davri uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga urinishlarini aks ettiradi.

Mashhura JO‘RAQULOVA,
jurnalist.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Андижон шаҳрида Гулистон МФЙ, Университет (собиқ Наманган) кўчаси 85-уйда яшаб, 1993 йил 18 май куни вафот этган марҳум **ХАЙДАРОВ КИМСАНДЖАН ПАРПИЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, 3-кичик даҳа, 38-уй, 13 хонадонда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Г.Киргизбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳридаги уйда яшаб, 2005 йил 15 декабрь куни вафот этган марҳум **XASANOV URINBAY XXX**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Бобур шоҳкўчаси, 30/А-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус И.А.Узакбаев нотариал идорасига,

Андижон шаҳри, Ў.Юсупов кўчаси, 11-уйда яшаб, 1999 йил 18 ноябрь куни вафот этган марҳум **АХРОРОВ БАХРОМЖОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумаларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, А.Темур кўчаси, 1/е-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ғ.Эрматов нотариал идорасига,

Андижон шаҳар, Зарбдор кўчаси, 14-16-уйда яшаб, 2005 йил 15 июль куни вафот этган марҳум **ЗУХРИТДИНОВА МАРХАМАТХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон шаҳри, Машраб кўчаси, 26/24-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Т.Қосимов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2024 йил 27 февраль куни вафот этган марҳум **ABDUXAKIMOV SHUXRATBEK SHAMSIDINOVICH**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Н.Акбаров нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2004 йил 12 декабрь куни вафот этган марҳум **ТОДЖИБОЕВ МАНАБДЖОН,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 24 март куни вафот этган марҳум **KURBANOV MAMIR PAKIRDINOVICH,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2013 йил 28 октябрь куни вафот этган марҳум **YULDASNOVA RABIYAXON,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 2 август куни вафот этган марҳум **TURDIYEVA MAXMUDAXON ABDULLAYEVNA,**

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2025 йил 28 март куни вафот этган марҳум **ASKAROV MUKSIM MUKUMOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Ю.Рахимов нотариал идорасига,

Избоскан тумани, Қўшкўприк МФЙ, Дурафшон кўчасидаги уйда яшаб, 2019 йил 17 октябрь куни вафот этган марҳум **ТУРГУНОВ МУМИН НУМОНЖОНОВИЧ,**

Избоскан тумани, Гудур МФЙ, Ёшлик кўчасидаги уйда яшаб, 2010 йил 4 апрель куни вафот этган марҳум **АЗИЗОВ АБДУВАХОБ АБДУРАШИТОВИЧ,**

Избоскан тумани, Тинчлик МФЙ, Яхши ният кўчаси, 54-уйда яшаб, 2022 йил 29 март куни вафот этган марҳум **ЭРГАШОВ АНВАРЖОН СОТКИНБОЕВИЧ,**

Избоскан тумани, А.Темур МФЙ, Майдон кўчасидаги уйда яшаб, 2019 йил 5 июнь куни вафот этган марҳум **MIRZARAXIMOV RASHID MADUMAROVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Избоскан тумани, Нақшбанд кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус С.К.Ботиров нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Кўтарма МФЙ, Кўтарма кўчасидаги уйда яшаб, 2011 йил 31 июль куни вафот этган марҳум **АЛЛАЯРОВ АРАББОЙ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Мустақиллик кўчаси, 114-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.И.Алиев нотариал идорасига,

Марҳамат тумани, Наврўз МФЙ, Мустақиллик кўчасидаги уйда яшаб, 2025 йил 25 сентябрь куни вафот этган марҳум **TO‘XTASINOVA SHAROFATXON TURG‘UNBOYEVNA**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Марҳамат тумани, Бобур шоҳкўчаси, 38-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Т.Усмонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Хўжаобод МФЙда яшаб, 1989 йил 10 февралда вафот этган марҳум **ИСМОИЛОВ МАМАСОЛИ,**

Шаҳрихон тумани, Абдубий МФЙда яшаб, 2022 йил 30 январда вафот этган марҳум **РАХМОНОВ НАСИРДИН ОТАМИРЗАЕВИЧ**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Ахмаджонов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Бег-бачча МФЙда яшаб, 2025 йил 4 февралда вафот этган марҳум **ERGASHEVA SOXIBAXON ABDURAXMONOVNA,**

Шаҳрихон тумани, Ўзбекистон МФЙда яшаб, 2021 йил 7 августда вафот этган марҳум **TOSHTEMIROV IQBOLJON ODILOVICH**ларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Р.Ёдгоров кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Маматов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Сохиобод МФЙ, Қашқар кўчасида яшаб, 2025 йил 23 мартда вафот этган марҳум **ГОПОРОВ ШОХОБИДИН АБДУНАБИЕВИЧ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Чинобод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.М.Мўйдинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қўрғонча МФЙ, Қўрғонча кўчасида яшаб, 2020 йил 14 мартда вафот этган марҳум **XUSANOV MO‘MIN**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Хамза кўчаси, 2-уй, 4-квартирада жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Мўйдинов нотариал идорасига,

Шаҳрихон тумани, Қўрғонча МФЙда яшаб, 2022 йил 1 июнда вафот этган марҳум **УМАРОВА ГАВХАРХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Шаҳрихон тумани, Чинобод кўчаси, 10-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Б.Ибрагимов нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Янги обод МФЙдаги уйда яшаб, 2024 йил 2 январь куни вафот этган марҳум **ЮЛЧИБАЕВ БОТИРАЛИ**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига,

Бўстон туманида яшаб, 2018 йил 13 февралда вафот этган марҳум **МИРЗАОЛИМОВА ТУХТАХОН**нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, бир ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Бўстон тумани, Тараққиёт кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Мўйдинов нотариал идорасига мурожаат қилишлари сўралади.

БИЛДИРУВ

Андижон вилояти ИИБ молия таъминоти хизмати Пенсия бўлими томонидан KOMILOV FARXOD MOMINJANOVICH (ЖШШИР: 31408811240024) номига берилган пенсия гувоҳнома йўқолганлиги **МАЪЛУМ ҚИЛИНАДИ.**



PAXTAOBODLIK YOSH SPORTCHI OSIYO O‘YINLARI G‘OLIBI BO‘LDI

Bahrayn davlatida joriy yilning 22–31-oktyabr kunlari yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida andijonlik sportchi, Paxtaobod tumani vakili Abdug‘ani Yorqinjonov munosib ishtirok etdi.

-46 kilogramm vazn toifasida final bahsida u qozog‘istonlik Arman Mirsabitga qarshi bellashib, 4:1 hisobidagi ishonchli g‘alabani qo‘lga kiritdi. Shu tariqa Abdug‘ani Yorqinjonov Osiyo o‘yinlarining oltin medali sohibiga aylandi.

Mazkur yutuq nafaqat sportchining shaxsiy muvaffaqiyati, balki yurtimiz sport maktabi va yoshlarimiz salohiyatining yana bir yorqin namoyon bo‘lishi bo‘ldi.

D.ABDUMAJIDOVA

Javon

Ayvars FREYMANIS



Bu voqeani menga sahna rassomi Plaudis hikoya qilib bergandi. Shuni ham aytishim kerakki, Plaudis butun Rigaga dong‘i ketgan suzuvchi. Odamlarning gaplariga qaraganda, agar kayfiyati yaxshi bo‘lsa, uning Kish ko‘lidan suzib o‘tishi hech gap emas, albatta, buning uchun ko‘l qalin muz qatlami bilan qoplanmagan bo‘lishi lozim. Hatto kunlarning birida u butun Riga qo‘ltig‘idan suzib o‘tganmish; buning uchun Salatsgrivadan Enguregа qadar suzib borgan. Shunisiyam borki, Plaudis u yoqqa quloch yoyib suzgan bo‘lsa, qaytishda chalqanchasiga suzgan. O‘zim ham uning Langstinyu ko‘li bo‘ylab doira yasab suzganligiga guvoh bo‘lganman. O‘shanda u shunaqa kibru havo bilan suzgandiki, bu sportchining oldida kinohujjatchi Ansis Epners unga mikrofon tutganicha, oldinda suzib borar (u marafonchilar bilan shunga o‘xshash film yaratganmish), Plaudisning suzish inson salomatligi uchun nechog‘li ahamiyatga molik ekanligi to‘g‘risidagi bebaho so‘zlarini kino tasmasiga muhrlardi. Biroq men nima sababdan hadeb Plaudis to‘g‘risida so‘zlamoqdaman, axir gap uning haqida emas, balki javon xususida borishi kerak-ku?!

Voqea bunday bo‘lgandi. Plaudis o‘zi uchun qadrdon bo‘lib qolgan operetta teatridan chiqdi-da, Vidzem bozoriga yo‘l oldi. Shu asnoda uni badbashara, yuz-ko‘zi loyga qorishib, oftobda qolgan qumanjir, ya’ni kaktusni eslatuvchi bir odam to‘xtatdi.

— Bu sen… latishmisan? — so‘radi u Plaudisni boshdan-oyoq ko‘zdan kechirarkan; undan marvaridguldan tayyorlangan odekolon hidi taralmoqdami yoki kerogazning dimoqni yoradigan achchiq dudi isi kelmoqdami — bilib bo‘lmasdi.

— Bu men… yaponman, — rassom tezroq yo‘lga tushish uchun shunday dedi. — Ustiga-ustak, juda kambag‘alman.

— Eshityapsanmi? — inson-qumanjir rassomning izohini tinglab o‘tirmadi, uning pidjagi etagidan mahkam ushladi. — Quruqman, hammayog‘im qurib yotibdi. Uyda esa ukam supada yotganicha qurimoqda!

Plaudis ana shu tasqara odamning changalidan bir amallab o‘zini xalos etarkan, “Bu ishga mening hech qanday aloqam yo‘q” demoqchi bo‘lgandi, ammo boyagi zot rassomdan oldin otini qamchilagandek, dedi:

— Javon! Qadim zamondan qolgan qimmatbaho yodgorlik. O‘n so‘mga beraman!

— Tasodifan shunday bo‘ldimi yoki qumanjir qiyofasidagi inson teatr bilan yonma-yon yashab, Plaudisni ko‘z ostiga bosib qo‘yganmidi — bilib bo‘lmasdi: ammo uning so‘zlari naq nishonga borib tekkandi. Aftidan, u oldindan bir haqiqatni bilardi: bizning sahna rassomimiz uchun osoriatiqa mebeldan iborat to‘plamini biron-bir qiyshiq oyoqli, charxlangan, mayda-chuyda bezakli, qo‘ng‘iz ilma-teshik qilib tashlagan bo‘lsa ham mayli, mebel bilan boyitish katta quvonch baxsh etardi (albatta, suzish quvonchi bundan mustasno). Ustiga-ustak, o‘sha mebelning kulgili darajada arzonligini aytmaysizmi?!

Biroq ular kvartiraga chiqib borishganida, mazkur turarjoyning shu darajada tashlandiq va g‘aribona kulba ekanligi ma’lum bo‘ldiki, Plaudisning — nima bo‘lganda ham u rassom, binobarin, hissiyotli inson ediki — yuragi “shig‘g‘” etib ketdi; ko‘ngli aynib, qusib yuborishiga bir bahya qoldi, eshik tutqichini qo‘li bilan paypaslab topmoqchi bo‘ldi. Va’da qilingan javon — haqiqatan ham almisoqdan qolgan, hashamatli edi — bu isqirt, qurum bosgan turarjoydagi mebelning yagona namunasi sanalardi; albatta, g‘ishtga o‘xshatib ustma-ust qalangan taxtalar, ularni o‘rindiq degani til bormaydi, bundan mustasnodir. Mana shu qo‘lbola to‘shakda, ust-boshini ham yechmasdan, titig‘i chiqib ketgan fufaykaga bir amallab o‘rangan bir yigit cho‘zilib yotardi, u akasidan ko‘ra xiyla aqlli ko‘rinar, shishaga o‘xshash nigohini shiftga qadaganicha qotib qolgandi. Sirtdan qaraganda odam uni allaqachon jonini yaratganga topshirgan, deb o‘ylashi mumkin. Opa-singillarning boshiga tushgan kulfatlar haqida mo‘jiza ro‘y berib omon qolgan javon, devordagi o‘ngib ketishga ham ulgurmagan, hozircha chang-chung qoplamagan — katta va kichik, balandda va pastda joylashgan to‘g‘ri burchakli va kvadrat tasvirlar guvohlik berib turardi.

Plaudisning diqqat-e’tiborini devorda osig‘liq turgan juvonning portreti, aniqroq gapirganda, tevarak-atrofi burmali hoshiya bilan qoplangan, qizil yog‘ochdan yasalgan, ehtimol, mashhuri jahon bo‘lgan usta Berniyeksning ijodi mahsuli sanalgan rom o‘ziga qaratdi. Uning ko‘z qarashlarini anglagan — inson-qumanjir hiqillaganicha yig‘lab yubordi, burnini “shilq” etib tortdi, so‘ng uni yengi bilan artdi-da, ta’kidladi: “Bu bizning volidamiz; uning suvratini biz hech qachon, hech kimga va hech qanaqa pulga sotmaymiz. Javonni esa, marhamat, olib ketishingiz mumkin. — U xaridorning ikkilanayotganini ko‘rib, qo‘shimcha qildi. — Shundan so‘ng men, agar ish chappasiga ketsa, uni biron-bir odamga besh so‘mga, hatto uch so‘mga ham sotib yuboraman, ammo o‘zimning va ukamning cho‘p-ustixon bo‘lib, oriqlashimizga yo‘l qo‘ymayman”. Ishning kutilmagan bunday yo‘nalish bo‘ylab rivojlanishi sahna rassomini inontirdi, u talab qilingan o‘n so‘mni stol ustiga qo‘ydi, ustiga-ustak, cho‘ntagini kavlashtirib, bir qancha tangalarni ham uzatdi. Javon egasi yana ho‘ngrab yubordi. Bu safar u to‘la baxtga erishganligidan yig‘lar edi.

Shom tushganga qadar Plaudis o‘zi xarid qilgan javonni yuvdi, dezinfektsiyaladi, unga sayqal berdi. Kattakon, yassi shakldagi ko‘zgu ostida suriladigan ikkita g‘aladon joylashgandi. G‘aladonlardan biri qurib ketgan, qiyshayib qolgandi. Rassom qiyinchilik bilan g‘aladonni sug‘urib oldi-da, unga nigoh tashladi: allaqayerda, chuqurlikdagi o‘rgimchak to‘ri bilan qoplangan zarang daraxti yaprog‘ini ko‘rdi. Bu yaproq o‘tgan yilning kuzidan qolgan “yodgorlik”mikin?

Yo‘q, bu — o‘n so‘mlik pul edi.

Rus tilidan Sherali SOKIN tarjimasi.
“Jahon adabiyoti” jurnalidan olindi.
2005 yil, 11-son.

ADOLAT MEZONI

MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati

Muharrir: M.ORTIQOVA

Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy. Telegram: (+998 99) 995-19-66 E-mail: and_mezoni@inbox.uz

Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536

Gazeta tahririyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi. «ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi. Chop etishga topshirish vaqti 29.10.2025-yil, soat 11.00. Chop etishga topshirildi 29.10.2025-yil, soat 14.00. Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy. Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.

Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li